

## Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-mart oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 2 475,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni tashkil etdi.

#### Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida, xususan, Termiz shahri (548,6 mlrd so'm), Sariosiyo tumani (168,2 mlrd so'm) va Denov tumanida (163,4 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

|                      | Hajm, mlrd so'm | O'sish sur'ati, % |
|----------------------|-----------------|-------------------|
| Surxondaryo viloyati | 2 475,0         | 101,2             |
| Termiz sh.           | 548,6           | 109,7             |
| Oltinsoy tumani      | 29,7            | 105,9             |
| Angor tumani         | 102,7           | 100,5             |
| Bandixon tumani      | 18,2            | 69,0              |
| Boysun tumani        | 77,2            | 101,4             |
| Muzrabot tumani      | 89,2            | 101,2             |
| Denov tumani         | 163,4           | 100,4             |
| Jarqo'rg'on tumani   | 104,0           | 126,7             |
| Qumqo'rg'on tumani   | 76,1            | 105,5             |
| Qiziriq tumani       | 41,3            | 108,1             |
| Sariosiyo tumani     | 168,2           | 93,9              |
| Termiz tumani        | 119,7           | 102,4             |
| Uzun tumani          | 33,4            | 89,7              |
| Sherobod tumani      | 85,2            | 101,1             |
| Sho'rchi tumani      | 37,4            | 100,7             |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 82,3 % i yoki 2 037,3 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **185,1** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 9,1 %*;

Kichik korxona va mikrofirmalar – **952,2** mlrd so'm *hamda ulushi – 46,7 %*;

Norasmiy sektor – **900,0** mlrd so'm *hamda ulushi – 44,2 %*.

Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi



2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Termiz shahri (404,0 mlrd so'm), Denov tumani (135,5 mlrd so'm), Sariosiyo tumani (126,5 mlrd so'm) va Termiz tumanida (98,6 mlrd so'm) qayd etildi.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Yangi qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Yangi qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 77,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 98,7 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,2 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,7 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni tashkil etdi.

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



#### Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,8 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,6 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,5 % punktga ko'payib 48,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,1 % punktga kamayib, 48,2 % ni tashkil etdi.

### Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Angor tumani (71,7 %), Denov tumani (84,7 %) va Boysun tumanida (83,7 %) kuzatildi.


#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

### Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 32,1 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 % punktga kamayib 67,9 % ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Qiziriq tumani (46,2 %), Sariosiyo tumani (35,7 %) va Jarqo'rg'on tumanida (29,4 %) kuzatildi.

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,7 % punktga ko'paydi va 6,3 % ni tashkil etdi.

Qolgan 93,7 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,7 % kamaydi.

#### Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Termiz shahrida (9,9 %), Oltinsoy tumanida (8,0 %) va Sherobod tumanida (6,6 %) kuzatildi.

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

#### IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 219,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 154,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,0 % ga ko'payib, 8,9 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,0 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,9 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ni tashkil etgan holda 1 336,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 37,1 % ni yoki 919,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 85,7 % ni tashkil etdi. Shundan 829,4 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 88,5 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 70,6 mlrd so'mni va 59,7 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 19,6 mlrd so'mni va 108,5 % ni tashkil etdi.

### Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



### Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari (taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda)

|                      | Hajm, mlrd so'm |                         |                 | O'sish sur'ati, % da |                         |                 |
|----------------------|-----------------|-------------------------|-----------------|----------------------|-------------------------|-----------------|
|                      | Yirik           | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor | Yirik                | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Surxondaryo viloyati | 219,0           | 1336,4                  | 919,6           | 154,5                | 108,2                   | 85,7            |
| Termiz sh.           | 24,3            | 521,2                   | 3,1             | 381,6                | 112,0                   | 10,5            |
| Oltinsoy tumani      | 6,2             | 12,0                    | 11,5            | -                    | 81,5                    | 85,4            |
| Angor tumani         | 9,5             | 66,6                    | 26,6            | 264,7                | 100,9                   | 81,0            |
| Bandixon tumani      | 0,7             | 12,5                    | 5,0             | 105,1                | 113,7                   | 33,3            |
| Boysun tumani        | 0,7             | 56,8                    | 19,7            | 282,7                | 110,2                   | 80,3            |
| Muzrabot tumani      | 13,0            | 37,7                    | 38,5            | 101,7                | 107,9                   | 95,1            |
| Denov tumani         | 2,6             | 95,4                    | 65,4            | 137,4                | 111,8                   | 86,1            |
| Jarqo'rg'on tumani   | 22,1            | 40,8                    | 41,1            | 764,3                | 86,9                    | 127,5           |
| Qumqo'rg'on tumani   | 3,0             | 36,2                    | 36,9            | 181,9                | 85,7                    | 131,8           |
| Qiziriq tumani       | 0,7             | 28,9                    | 11,7            | 152,3                | 120,1                   | 84,9            |
| Sariosiyo tumani     | 54,7            | 72,8                    | 40,7            | 89,2                 | 105,2                   | 83,4            |
| Termiz tumani        | 3,5             | 72,3                    | 43,9            | 133,0                | 104,9                   | 96,7            |
| Uzun tumani          | 1,3             | 22,7                    | 9,4             | 102,8                | 107,1                   | 63,0            |
| Sherobod tumani      | 4,8             | 34,5                    | 45,9            | 93,5                 | 111,5                   | 95,0            |
| Sho'rchi tumani      | 1,7             | 26,3                    | 9,4             | 107,5                | 117,3                   | 70,9            |

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Jarqo'rg'on tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 764,3 %), Angor tumani (264,7 %) va Termiz shahrida (381,6 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 120,1 %), Sho'rchi tumanida (117,3 %) va Termiz shahriga (112,0 %) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qumqo'rg'on tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 131,8 %), Jarqo'rg'on tumani (127,5 %) va Muzrabot tumanida (95,1 %) qayd etildi.

## V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Surxondaryo viloyati investitsiya va  
qurilish statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
SH. Gaipov  
55 451-80-00 (7520)

**Manzil:**

